

Rasulova Nilufar Murtozo qizi

Navoiy, Sharq Universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) yo‘nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Safoyeva Shodiya Ma‘ruf qizi

Sharq universiteti, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0004-1066-1264

E-mail: rnilufar250@gmail.com

Annotatsiya : Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi unli tovushlarning fonologik va akustik-fonetik sathlari kompleks tarzda tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida hozirgi o‘zbek adabiy tilining vokalizmlar tizimi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, unli fonemalarning fonologik xususiyatlari, ya’ni ma’no farqlashdagi funksional roli izchil yoritiladi. Xususan, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan asosiy unli fonemalar – /a/, /e/, /i/, /o/, /u/, /o‘/ – ning tizimi, ularning fonologik oppozitsiyalari hamda artikulyatsion belgilariga asoslangan tasnifi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. O‘zbek tili, fonologiya, fonema unli tovushlar, undosh tovushlar akustik fonetika, vokal tizim, artikulyatsiya, akustik xususiyatlar, formantlar, tovush chastotasi.

Аннотация: В данной статье всесторонне изучены фонологический и акустико-фонетический уровни гласных звуков в узбекском языке. В ходе исследования на основе научных источников анализируется вокальная система современного узбекского литературного языка, последовательно выделяются фонологические свойства гласных фонем, то есть их функциональная роль в различении значений. В частности, научно описана система основных гласных фонем узбекского языка — /a/, /e/, /i/, /o/, /u/, /o‘/, их фонологические оппозиции и классификация на основе артикуляционных знаков.

Ключевые слова: Узбекский язык, гласные, фонология, акустическая фонетика, фонема, голосовая система, артикуляция, акустические свойства, форманты, частота звука.

Abstract: This article comprehensively studies the phonological and acoustic-phonetic levels of vowels in the Uzbek language. In the course of the research, the vocal system of the modern Uzbek literary language is analyzed based on scientific sources, and the phonological properties of vowel phonemes, that is, their functional role in distinguishing meaning, are consistently highlighted. In particular, the system of the main vowel phonemes in the Uzbek language - /a/, /e/, /i/, /o/, /u/, /o'/' - is scientifically described, their phonological oppositions and classification based on articulatory signs.

Keywords: Uzbek language, vowels, phonology, acoustic phonetics, phoneme, vocal system, articulation, acoustic properties, formants, sound frequency.

Tovush (tilshunoslikda) nutq, tovushi kishining murakkab artikulyatsion faoliyati natijasi hisoblangan, muayyan akustik (eshitilish) va perseptiv (idrok etilish) xususiyatlari bilan ajralib turadigan eng kichik nutq birligi hisoblanadi. Talaffuz usuliga muvofiq holda tovushning akustikasi, artikulyatsiyasi va persepsiyasi haqida fikr yuritiladi. Har bir nutq tovushi artikulyatsion jihatdan talaffuz a'zolarining murakkab harakati natijasida paydo bo'ladi. Akustik jihatdan esa, har qanday boshqa tovush singari, havo muhiti orqali tarqaladigan tebranma harakat sifatida ta'riflanishi mumkin. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi vosita (tebrantiruvchi kuch) o'pkadan nafas yo'li orqali chiqib, avval bo'g'izga va undan og'iz bo'shlig'iga, ba'zan burun bo'shlig'iga o'tadigan havo oqimidir. Ovoz (un), asosan, bo'g'izda hosil bo'ladi. Unda ko'ndalang joylashgan elastik, yupqa tovush (un) paychalari mavjud bo'lib, so'zlash paytida o'pkadan chiqayotgan havoning kuchi bilan titraydi va ovoz hosil qiladi. Unlilar, sonorlar va jarangli undoshlardagi ovoz ana shuning natijasidir. Bo'g'iz orqali o'tgan havo oqimi til, tanglay, tish yoki ikki labning to'sqinligiga duch kelib, shovqin paydo qiladi, natkjada jarangsiz undoshlar hosil bo'ladi. Tovushlar so'z va grammatik ko'rsatkichlarni shakllantirish hamda ularni birbiridan farqlash, ajratish uchun xizmat qiladi. Bunday xususiyatli Tovushlar fonema deb yuritiladi, biroq barcha Tovush ham fonema bo'la olmaydi. Tovush (fonema)lar bir necha jihatdan tasnif qilinadi. Ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra, ular avvalo 2 ga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Unli tovush deb o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishidan hosil bo'ladigan tovush unli hisoblanadi. Unli tovushlar – og'iz va bo'g'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar. Har bir til o'ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** (lotincha: vocalis – unli tovush) deyiladi. Unli tovushlar soni turli tillarda turlichadir. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida unli tovushlar 6 ta bo'lsa, boshqa turkiy tillarda 8 ta, 10 ta va undan ham ortiqdir. Bu miqdor rus tilida 5 tani, fransuz tilida esa 18 tani tashkil etadi. Unli tovushlar bir necha jihatdan tasnif etiladi. Bu tasniflarning o'zbek tilidagi 6 ta unli fonema (i, e, a, o, u,

o‘) misolida ko‘rib chiqish mumkin. Unlilar dastlab tilning harakati va labning holati (ishtiroki) nuqtayi nazaridan turlarga ajratiladi. **Tilning harakatida 2 hodisa farqlanadi:**

- ❖ tilning yotiq (yonlama) harakati;
- ❖ tilning tik (vertikal) harakati.

Tilning yotiq (yonlama) harakatida hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra unlilar **2 turga** bo‘linadi:

- til oldi (yoki old qator) unlilari – i, e, a;
- til orqa (yoki orqa qator) unlilari – o, u, o‘.

Tilning tik harakatiga ko‘ra unli tovushlar **3 turga** bo‘linadi:

- 1. Yuqori ko‘tarilish unlilari (i, u);**
- 2. O‘rta ko‘tarilish unlilari (e, o‘);**
- 3. Quyi ko‘tarilish unlilari (a, o).**

Labning holati (ishtiroki)ga ko‘ra unlilar 2 ga bo‘linadi:

- lablangan unlilar (u, o‘, o)
- lablanmagan unlilar (i, e, a,).

Lablangan unlilar talaffuz qilingan vaqtda lablar faol ishtirok etadi: lab cho‘chchayib, oldinga chiqadi, dumaloq shakl oladi. Lablanmagan unlilar talaffuzida lablar ishtirok etmaydi yoki lablar ishtiroki passiv bo‘ladi. Tovushning hosil bo‘lishida ketadigan vaqtning miqdoriga ko‘ra unli tovushlar 2 turga bo‘linadi: cho‘ziq unli; qisqa unli. Cho‘ziq unli davomli (cho‘ziq) talaffuz etiladigan unli tovushlardir. Bunday tovushlar ko‘pincha ma’no farqlash uchun xizmat qiladi. Bu hodisa turkiy tillarning ba’zilarida, shuningdek, ayrim o‘zbek shevalarida uchraydi. Masalan, turkman tilida a:ch (qornim och) va ach (eshikni och), ba:r (menda bor) va bar (ishga bor), a:t (nom, ism) va at (yilqi) va boshqa Qisqa unlilar talaffuziga cho‘ziq unliga nisbatan oz vaqt ketadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, fonologik oppozitsiya turli til tovushlarini qarama-qarshi qo‘yishga asoslanmaydi, chunki u muayyan bir tilning struktural birligidir va shu tilning o‘zigagina xizmat qiladi. Qolaversa, fonologik oppozitsiyalar hozirgi (amaldagi) tilning strukturaviy birliklari sanaladi, ular tarixan o‘zgarib turishi ham mumkin. Masalan, qadimgi turkiy va eski turkiy tillarda unli fonemalar tilning yotiq (gorizontal harakatiga ko‘ra old qator va orqa qator zidlanishlariga ega bo‘lgan: (i-i) +(y-u) + (Θ-o) + (ə-a) kabi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bunday zidlanish o‘zining fonologik xususiyatini yo‘qotgan fonemalar konvergentsiyasi natijasida i-i unlilari bitta i ga, y-u unlilari bitta u ga, Θ-o unlilari bitta o‘ ga, ə-a unlilari esa bitta a ga birlashgan. Demak, fonologik oppozitsiyalar til taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan belgilanadi, ayni shu bosqichda bir fonema boshqa fonemaga bir xil pozitsiyada

qarama-qarshi qo‘yiladi: hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi „i va u unilari so‘z boshida (ich va uch) yoki bir xil fonetik qurshovda (bir va bur, qish va qush) bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgani kabi. Demak, “oppozitsiya” tushunchasi "fonema" va „pozitsiya“ tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir: fonemaning bo‘lishi oppozitsiyaning bo‘lishini, oppozitsiyaning bo‘lishi esa pozitsiyaning bo‘lishini taqozo qiladi".

Eslatma: “pozitsiya” kategoriyasini birinchi bo‘lib hamyurtimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850) kashf etgan. U o‘zining “Hind arifmetikasi haqida kitob” (“Hisob al-hind”) asarida o‘nlik sistemasi raqamlaridan (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) foydalanib, katta sonlarni yozish tizimini ishlab chiqqan. Bu tizimga ko‘ra raqam birinchi pozitsiyada birlikni, ikkinchi pozitsiyada o‘nlikni, uchinchi pozitsiyada yuzlikni (to‘rtinchi, beshinchi, ... pozitsiyalarda yanada kattaroq sonlarni) ifodalaydi: 0 (nol), 1 (bir), 10 (o‘n), 100 (yuz); 2 (ikki), 20 (yigirma), 200 (ikki yuz) kabi. Keyinchalik “pozitsiya” tushunchasi til tizimiga ham tatbiq etilgan va fonologik oppozitsiya tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Til tovushini yozib tasvirlashda asosan amaliy yozuvga xizmat qiladigan alifbodan foydalaniladi. Lekin hozirgi amaliy alifboda “bir tovush-bir harf munosabatiga to‘liq erishilmagani sabab til tovushlari tizimini tasvirlashda alifboga qo‘shimcha harflar kiritiladi. Ushbu darslikda hozirgi adabiy o‘zbek tilining tovushlar tizimi hozir joriy etilgan o‘zbek lotin alifbosiga kompyuter xotirasidagi kengaytirilgan lotin alifbosi imkoniyatlaridan foydalanib quyidagi o‘zgarishlarni kiritgan holda tasvirlandi:

1. o harfi o‘rta-tor tovushni ifodalash uchun ishlatilib, o‘ harfidan foydalanilmadi;
2. O‘zbek tilining lablashgan keng tovushi a harfi bilan ifodalandi;
3. j harfi sirg‘aluvchi tovushni ifodalash uchun qoldirilib, portlovchi tovush c harfi bilan ifodalandi;
4. ch harflar tizmasi o‘rniga c harfi, sh harflar tizmasi o‘rniga s harfi, ng harflar tizmasi o‘rniga n harfi, g‘ harfi o‘rniga g harfi ishlatildi.

1. Tilning uch darajali ko‘tarilish belgisiga ko‘ra:

- a) i (yuqori tor unli) – e (o‘rta keng unli) = i-e oppozitsiyasi;
- b) e (o‘rta keng unli) – a (quyi keng unli) = e-a oppozitsiyasi;
- d) i (yuqori tor unli) – a (quyi keng unli) = i-a oppozitsiyasi;
- e) u (yuqori tor unli) – o‘ (o‘rta keng unli) = u-o‘ oppozitsiyasi;
- f) o‘ (o‘rta keng unli) -o (quyi keng unli) = o‘-o oppozitsiyasi;
- g) u (yuqori tor unli) – o (quyi keng unli) = u-o oppozitsiyasi.

2. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra;

- a) i (lablanmagan) – u (lablangan) = i-n oppozitsiyasi;
- b) e (lablanmagan) – o' (lablangan) = e-o' oppozitsiyasi;
- d) a (lablanmagan) – o (lablangan) = a-o oppozitsiyasi.

Unli fonemalar paradigmasi. Tilning ko'tarilish darajasi(yuqori o'rta, quyi) va lablanish lablanmaslik-kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy sistema hosil qiluvchi belgisi.Unlilarning gorizontol holatiga ko'ra old qator, o'rta qator va orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi.Chunki bu belgilar ularga nutqiy yondosh tovush ta'sirida o'zgarib boradi. Masalan,q undoshi bilan qo'shnicilik munosabatida [a] unlisi til orqalik xossasiga ega bo'lsa,[k] undoshi qurshovida o'z holatini saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda,Unli tovushlarni o'rgatish jarayonining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, uning mazmunini yangi bosqichga olib chiqish yo'lida Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, yangi avlod darsliklarining kommunikativ va kognitiv- pragmatik yondashuvlar asosida yaratilayotgani yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatli va har tomonlama yetuk insonlar sifatida kamol toptirishga xizmat qilmoqda. Shu boisdan, og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim mazmuni va metodlarini takomillashtirish, unli tovushlarning to'g'ri talaffuziga oid qoidalar, mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zaruriy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980; Reformatskiy A. A, Vvedeniye yazikovedeniye, M., 1998.
2. Jamolxonov, H.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005.
3. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abduzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2009
4. Mirzayev.M, Usmonov.S, Rasulov.I, O'zbek tili. "Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot".1978
5. Ne'matov H o'zbek tilining tarixiy fonetikasi -T.,1992.
6. Shoabdurahmonov Shu, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyor X. Hozirgi o'zbek adabiy tili 1-qism "O'qituvchi". T., 1980